

3. N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva. Tarbiyachi kitobi. Toshkent "Davrlar" Press NMU 2019 yil. 118-bet.

4. N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida tarbiyalanuvchilarning nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ta'limiy faoliyat ishlanmalari. Toshkent 2019 yil.

5. Elektron resurs manbalar:

- [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)

- [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## **BOLALAR UCHUN BILIMLARNI SAMARALI O'ZLASHTIRISH USULLARI**

**Gapparova Zilola Ne'mat qizi**

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi*

*Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus  
ta'lim metodikalari kafedrasida o'qituvchisi*

**Turopova Feruza Narzulla qizi**

*Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari*

*"B" guruh tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bolalar uchun bilimlarni samarali o'zlashtirish usullari umumiy gurux va rivojlanish markazlarida olib boriladigan faoliyatlarda o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonining asosiy mavzusini tanlash albatta bolalarning barcha faoliyati bu mavzuga bog'ishlangan bo'lishi kerak degani emas. Yaani markazlardagi faoliyat mavzularini oy va hafta mavzulari va umumiy maqsaddan chetlashmagan holda o'zgartirishni va boyitishni tavsiya etiladi. Mavzuning asosiy muddalatga taqsimlashda maqsad –ta'lim jarayonining integratsiyalashtirish va bolalarda faoliyatni ta'lim sohalari bo'yicha asossiz taqsimlanishining oldini olishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy –xissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilim jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish.



**Abstract:** This article discusses the methods of effective learning for children in general groups and activities in development centers. Choosing the main topic of the educational process does not necessarily mean that all children's activities should be related to this topic. That is, it is recommended to vary and enrich the topics of activities in the centers without deviating from the topics of the month and week and the general goal. The goal of dividing the topic into main periods is to integrate the educational process and prevent unreasonable division of children's activities into educational areas.

**Keywords:** Physical development and the formation of a healthy lifestyle, socio-emotional development, speech, communication, reading and writing skills, development of the cognitive process, creative development.

### Faoliyatning borishi

Tarbiyachi: Mana shirintoy bilag'onlarim bugun guruhimiz poshta qutisiga maktub ajoyib quticha kelib tikeling shirintoylarim, siz bilan birga ochib ko'tamiz. Bu quchamizda nimalar bor ekan,

(tarbiyachi bolalar bilan birgalikda qutichani ochishdi).

Bolajonlar qutichamiz ichida g'aroyib kitob va kompus bor ekan. Qani e'tibor berib ko'ringlarchi kitobimizda nima farq bor ekan.

1-bola Kitob chiroyli ekan

2-bola Geometrik shakllar bor ekan.

3-bola Kitob quliflangan ekan.

4- bola kompus ham bor ekan.

Tarbiyachi: Bolajonlar kompus bizlarga nima uchun kerak bo'ladi.

1-bola Kompus to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

2-bola Yo'ldan adashib qolmasik uchun bizlarga yo'lni ko'rsatib beradi.

Tarbiyachi: bolajonlar sizlarga maktub ham jo'natishib keling sizlarga buni o'qib beraman.

### Maktub

Salom menning jajji bilag'onlarim sizlarni aqlli, bilimli, chaqqon bolalar deb eshdim men O'rmonchi bobogizman sizlarni sirli o'rmonimga taklif



qilaman. Sizlarga yo'lni to'g'ri topishigiz uchun sizlarga kompus va xarita va kitobni poshtadan jo'natdim. Sizga jo'natgan kitobim yanada bilimli bo'lishingiz uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Kitobni qulfuni ochish uchun kalitni topishingiz kerak. Bu vaziyatda yo'lni kompus va harita yordam beradi. Siz sayohat davomda turli bekatlatga to'xtab ajoyib qutichalarni topishingiz kerak bo'ladi. Bu qutichalar ichida qiziqarli shartlat va ta'limiy o'yinlar mavjud. Shartlarni bajarsangiz gometrik shakillarni qo'lga kiritasiz va bu shakllarni kitob muqovasiga joylab borasiz. Ishonamanki siz bog'changizda o'rgangan bilimlaringiz, chanqonliklaringiz bilan o'z maqsadingizga oson ersha olasiz kitob uchun kalitni topa olasiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar bugungi ta'limiy faoliyatida biz o'rmonga sayohat qilamiz. Bizga buning uchun yo'l boshchi kerak edi, yo'lboshchi vazifasini men olaman. Bolajonlar o'rmonga qanday buyumlar olib borishimiz kerak.

1-bola: suv, non, yeguliklar, kompus harita va bosh kiyim kerak.

Tarbiyachi: Juda ham to'g'ri siz aytgan buyumlar bitta haltachaga solingan va men ularni o'zim bilan birga oldim qani, hamma tayyor bo'lsa aftobusga chiqamiz va o'rmonga yo'l olamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar siz bilan birgalikda jonli tabiat qo'yniga sayohat qilamiz yo'limiz uzoq keling siz bilan tabiatni seving nomli sherimini qaytarib olamiz:

Qanday yaxshi alvon lolalar

Qanday yaxshi shabnam bolalar

Qani o'pib qo'ying bolalar

Tabiatni seving bolalar

Tarbiyachi: Qo'limdagi haritaga ko'ra biz shu bekatda to'xtaymiz.

Bolajonlar bekatimiz qanday shaklga o'xshaydi.

Bola: Doira shaklga o'xshaydi.



Tarbiyachi: -To'g'ri bekatimiz doira shaklga o'xshaydi qo'limdagi xaritaga ko'ra biz oldinga o'ng qadam yuramiz qadamlarni ichingizda sanan?

Va o'nta bo'ganda o'sha yerda to'xtang.

(Balalar ong qadam yurib to'xtashdi )

Tarbiyachi:-Xaritada ko'rsatilishcha o'ng tomonga qayrilamiz va yetti qadam yuramiz.

(bolalar o'ng tomonga qayrilishdi va yetti qadam yurib to'xtashdi).

1-Bola: Tarbiyachi opa bizlar yetti qadamda to'xtadik.

2-Bola: qaring bu yerda sandiqcha bor ekan.

Tarbiyachi: sandiqcha yo'lning o'rtasidami yoki yo'lning chekasidami?

Bola:yo'lning chap tomonida turgan ekan.

Tarbiyachi:Sandiqchani shakli qanaqa ekan.

Bola:Sandiqcha to'g'ri to'rtburchak shaklad ekan.

Tarbiyachi: Keling sandiqchani birgalikda ochamiz.

(saniqchani ochishdi ichida ko'ylakcha va qo'ziqorinlar bor edi va turli gemertik shakllar bor edi).

Tarbiyachi: 1-ko'ylakchada qanday shakl bor.

Bola:aval shakli bor ekan .

Tarbiyachi:2-ko'ylakchada qanday shakli bor ekan.

Bola : doira shakli bor ekan.

Tarbiyachi: Bolalar aval va doira nimasi bn farq qiladi?

Bolalar: Doira dumaloq, oval uzunchoq

Tarbiyachi: 1 qatordagi qo'ziqorinlarning shapkasi doira shaklida,

2chi qatordagi qo'ziqorinlarning shapkasi sal uzunchoqroq.

Talimiy o'yin

(O'rnin topbunda bolalar qo'ziqorin qalpoqlariga geometric shakllarni joylashtiradi).



Tarbiyachi: - Barakalla, endi stolga o'tirib, onajonlarimiz uchun guldasta yasaymiz. Buning uchun oq qog'ozning o'rtasiga sariq doyra shaklini yopishtiramiz va doiraning atrofiga gulning barglari, ya'ni qizil ovalarni yelimlaymiz.

(Amaliy ish tarbiyachi tomonidan kuzatiladi va yordam beriladi, rag'batlantiriladi).

Tarbiyachi: Qoyil, bir pasda onajonlarimiz uchun chiroyli gul yasadik. Aytingchi, gulimizda qanday shakllardan foydalandik?

Bolalar: Oval va doyra.

Tarbiyachi: Barakalla, endi men sizlarga doyra va oval haqida ertak aytib beraman.

"Bir kuni doyra va oval bahslashib qolishibdi.

-Mening do'stlarim juda ko'p, seniki esa kam, masalan, velosipedning g'ildiragi, koptok, tarelka, qozon.

(bolalardan misollarni davom ettirish so'raladi), - deb yerdayibdi doyra.

Oval esa mening ham do'stlarim senikidan kam emas, masalan, tuxum, kivi, limon... (bolalardan misollarni davom ettirish so'raladi), deya qosh chimiribdi. Doyra va ovalning onalari bu bahsni eshitib, farzandlariga tanbeh berishibdi:

Sizlar ikkingiz qarindoshsizlar, bahslashish o'rniga do'stlashib, orzu qilishni o'rganing, - dyeyishibdi.

Shunda doyra dunyodagi eng katta basseyn bo'lishni orzu qilibdi. Oval esa dunyodagi eng katta sport maydoni bo'lishni orzulabdi. Shunday qilib oval bilan doyra do'stlashib, orzu qilishda davom etibdi va ularning do'stlari kundan-kunga ko'payaveribdi".

Tarbiyachi: Bolajonlar, bu ertakdan xulosa shuki, oval va doyra geometrik shakllar ichida o'z o'rniga ega bo'lgan shakllardir.



Tarbiyachi: Bilag'onlrim O'rmondchi bobo bergan 1 chi shartni a'lo darajada bajardik.Shu sababli qutichamizda ikkita obal va doira shakllari biz uchun tag'dim etildi.Keling kitobimizni joylashtirib ko'raylikchi?

Tarbiyachi: Kitobga oval va doira shaklini joylashdi va shakillar mos tushdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar endi yo'limizni yana davom etamiz xaritamizda chap tomonga qayrilib 10 qadam yuramiz.

Bolalar: Chap tomonga 10 qadam yurushadi.

Bolalar: Tarbiyachi opa biz 10 qadamda to'xtadik bu yerda buloq bor ekan. (Buloq surati tasvirlangan joyda to'xtashdi).

Tarbiyachi: Bolalar yo'lning chetida buloq bor ekan,Bolalar o'ng tomonda nimalar bor.

Bolalar: Juda chiroyli daraxt bor ekan.

Tarbiyachi: Bilag'onlarim bu daraxt juda chiroyli lekin bu daraxt boshqa daraxtlardan nimasi bilan farq qiladi.

Bolalar: Barglari rangli ekan,gullari juda chiroyli ekan.

Tarbiyachi: Bilag'onlarim to'g'ri topdigiz qarang daraxt yonida quticha bor ekan ko'raylikchi ichida nimalar bor ekan.

(quticha ichida gul va barglar bor Daraxt bargilarini juftini topib yopishtiring, gullarni ham o'rniga quying).

Tarbiyachi: Bolajonlar barg va gullarni o'z o'rniga yopishtiramiz.

(Bolalar bilan juftini top ta'limiy o'yin, barg va gullarni o'z o'riniga joylashadi).

Tarbiyachi: Bilag'onlarim o'rmonda yana qandan daraxtlar o'stadi.

Bolalar:Do'lana, olma , yong'oq.

2 - Bola: Smarodina, malina namatak.

3- Bola: Archa,kashtan, qayrag'och.



Tarbiyachi: Juda to'g'ri bilag'onlarim, namatak, malina, smarodina va butasimon daraxtlar bo'lib. Biz ularni bo'ylari past bo'lgani pastligi sababli pakana daraxtlar yaniy butasimon daraxtlar diymiz.

Tarbiyachi: Daraxtlarda nimalar olinadi?

1- bola: Daraxt pustiloqidan mebillar ishlab chiqariladi.

2- bola: Qog'oz olinadi.

3- bola: Daraxtlar toza havo beradi.

1- bola: Vitaminlarga boy mevalar.

2- bola: Uy qurush uchun yog'ochlar.

3- bola: Eshik va derazalar.

Tarbiyachi: Keling bolajonlar daraxtimizni atrofni kuzatmiz.

Tarbiyachi: Daraxtimiz ustida nimalar bor?

Bolalar: Bulut, qushlar, quyosh.

Tarbiyachi: Daraxtimiz o'ng va chap tomonlarida nimalar bor.

Bolalar: Chap tomonida daraxtlar, o'ng tomonga uy bor durbindan yaqin ko'rinadi lekin uzoq

1- bola: Daraxt pastida tuproq gullar.

2- bola qo'ziqorin, maysalar.

3- bola kesilgan daraxt, to'nkachalar bor.

Tarbiyachi: Keling bilag'onlarim siz bilan shu kesilgan daraxtlar ustida amaliy ish qilamiz

Kesilgan daraxtlarimizni kuzatayotganimizda uning yuzasidan aylana halqachalar, mavjud, bu halqachlar daraxt yoshini aniqlab beradi.

Qani shuni aylanalarni sanab korilichi neshta aylana halqachalar bor ekan.

1- bola: 1 chi to'nkachada 10 ta halqa olaman daraxtimiz 10 yoshda bo'lgan.

2- bola: 2 chi daraxtimizda 8 ta halqacha bor, demak 2 chi daraxtimiz 8 yoshda.

Tarbiyachi: juda to'g'ti bilag'onlarim daraxt yoshini aniqlash bo'yicha ilmiy amaliyotimizni yaxshi o'zlashtirdiz.



Keling, bolajonlarlarim , mana bu stol ustiga quruq salfitkalar rangli plamatirlar va idishlar suv bor salfetakalarimizni slayim chirilgan tomoni ustiga orqa tomonlarini

buklab, chizilgan daraxt o'stidan chizib chiqamiz.

(Bolalar chiziq bo'lishidi ).

Tarbiyachi: Bolajonim endi solfetakalarimizni chizilgan rsimlarni suvga solsang daraxtimiz buyoqdi. Bu bolajonlar uchun juda xursand bo'ladi va xayratlanadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar keeling sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tamiz Tasavvur qiling siz samalyotsiz ko'kda bulutlat orasida parvoz qiliyapsizlar . Men esa sizlarga samalyot haqida .Raxmat qalamiga mansub she'rni o'qib beraman. Siz atrofimda parvoz qiling.

Hoy, samolyot, samolyot,

Seni yaxshi ko'ramiz.

Uchib o'tsang osmondan,

Quvnab qarab turamiz.

Osmonda ham ko'rinmay,

Varillab sen ketasan.

Baland tog'lardan oshib

Uzoqqa tez etasan.

Tarbiyachi: (Bolalar jismoniy daqiqada yakunlagandan so'ng O'rmonchi bobo tashrif buyurdi).

O'rmonchi bobo : Salon meni jajji mehmonlarim xush kelibsiz o'zmonizmizga.

Bolalar: Assalomu alaykum

Tarbiyachi: assalomu alaykum bobojon xush ko'rdik .

O'rmonchi bobo: Bolajonlarim siz juda aqilibobo va bilimdon ekansiz xar bir shartlarni to'g'ri bajarganingiz sirlarga kitobingiz uchun geometrik shakillar va kalitni o'zim topshiraman.

( Bolalar kitobdagi qolgan 2 ta shaklni joylashdi va kalit bilan kitobni ochishdi).



Tarbiyachi: Bolajonlar bu kitobni ertak va hikoya topishmoq va sherlar rasmlarga joy ekan bobojon sovg'a uchun kata raxmat.

O'rmonchi bobo: Bolajonlar ho'p uzoqda ko'rinib turgan uyhani meni uyim sizni o'rmonda o'saadigan mevalar bilan mehmon qilaman va olib ketish uchun bir savat mevalar olib keldim.

Tarbiyachi: Bobojon sizga kata raxmat kech tushib qolmasdan tezroq bog'chamizga qayrishimiz kerak kelasi safar albatta uyingizga mehmon bo'lamiz.

(Bolalar savatdagi mevalarni olib o'rmonchi boboga raxmat aytib ortga qaytishidi).

### **Xulosa**

Bolalar uchun bilimlarni samarali o'zlashtirish usullari, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, faqat nazariy bilimlarni o'rganish emas, balki ular amaliyotda qo'llanilishi, bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bilimlarni samarali o'zlashtirishda aktiv takrorlash usuli juda muhim. Bu usul, o'quvchilarga o'rganilgan materiallarni ma'lum vaqt oralig'ida qayta ko'rib chiqish orqali ularni uzoq muddatli yodda saqlashga yordam beradi. Bu metodni turli interaktiv ilovalar yoki kartochkalar yordamida amalga oshirish mumkin. Takrorlashning intervalini optimallashtirish, bolalar uchun yangi bilimlarni samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bolalarga muammolarni hal qilish uchun o'z fikrlarini qo'llash imkoniyatini berish, ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali bolalar nafaqat bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'z mustaqil fikrlarini shakllantiradilar va qaror qabul qilishda tajriba orttiradilar. Bilimlarni bir nechta fanlar orqali o'qitish bolalarga yangi materialni yaxlit va qamrovli



tarzda tushunishga yordam beradi. Masalan, matematika va san'atni birlashtirib o'qitish, bolalar uchun o'rganish jarayonini qiziqarli va mantiqiy qiladi. Bu yondashuv, bolalarning turli ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga imkon ber. Shuning uchun bolalar uchun sifatli uyquni ta'minlash, ularning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bolalar uchun bilimlarni samarali o'zlashtirish usullari, nafaqat o'rgatilgan bilimlarni yodda saqlashga, balki ularni chuqurroq tushunishga va amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Ko'rgazmali metodlar, aktiv takrorlash, muammoli izlanishlar, integratsion yondashuv va yetarli dam olish kabi usullarni birgalikda qo'llash bolalarning ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Bu usullar bolalar uchun ilm-fan dunyosiga kirish, ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishga motivatsiya yaratish va ularning umumiy rivojlanishiga yordam berish uchun zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Maktabgacha ta'lim vazirligi "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanish bo'yicha Davlat o'qub dasturi". Toshkent, 2020 yil 22 dekabr 802- sonli O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirning qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiyachining davlat standarti. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanish bo'yicha Davlat o'qub dasturi".Toshkent, 2022
3. Tarbiyachi kitobi "Nutq o'stirish" 161 bet.  
Nasiba Erxonova, Zuhra Ro'ziyeva. Nashir qilingan yili 2020.01.28.
4. Tarbiyachi kitobi "Matematika" 98, 215, 234 bet.  
Nasiba Erxonova, Zuhra Ro'ziyeva. Nashir qilingan yili 2020.